

PEDAGOGLARNI O'Z USTIDA ISHLASH SAMARADORLIGINING TA'LIM SIFATINI OSHIRISHDAGI O'RNI

Abulkosimova Umida Asrorovna
Toshkent Kimyo xalqaro Universiteti
Samarqand filiali magistri

Annotatsiya. Pedagogik faoliyat mazmuniga ko'ra ijodiy xarakterga ega bo'lganligi sababli mehnatni ilmiy tashkil etish faoliyat samaradorligini ta'minlovchi muhim omil hisoblanadi. Maqolada shaxs o'z ustida ishlash jarayoniga doir qarashlar tahlil qilingan. Shaxsning faollik, mustaqillik, javobgarlik, mas'uliyatlilik, tashabbuskorlik, maqsadga intilish, o'z-o'zini boshqarish, tashabbuskorlik kabi psixologik sifatleri o'z o'zini rivojlantirishda muhim omil hisoblanadi. Ushbu omillar tahlili asosida shaxs o'z ustida ishlashi dinamikasini ta'minlovchi ziddiyatlar aniqlangan. Ilmiy tahlillar va izlanishlarga tayangan holda o'qituvchilarning o'z ustida ishlash jarayonining o'z-o'zini tahlil, o'z-o'ziga vazifa berish, o'z-o'zini rivojlantirish va o'z-o'zini baholash kabi bosqichlarda amalga oshiriladigan vazifalar mazmuni ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: pedagog, pedagogik mehnat, mehnatni ilmiy tashkil etish, rejalashtirish, kun tartibi, ish vaqti, mehnat sharoiti, dam olish vaqti.

РОЛЬ ЭФФЕКТИВНОСТИ РАБОТЫ УЧИТЕЛЕЙ НАД СОБОЙ В ПОВЫШЕНИИ КАЧЕСТВА ОБРАЗОВАНИЯ

Магистр Самаркандского филиала Ташкентского международного
химического университета
Абулкосимова Умида Асроровна

Аннотация. Поскольку содержание педагогической деятельности носит творческий характер, научная организация труда является важным фактором, обеспечивающим эффективность деятельности. В статье анализируются взгляды на процесс самостоятельной работы индивида. Психологические качества личности, такие как активность, самостоятельность, ответственность, инициативность, стремление к цели, самоуправление, самосознание, являются важным фактором саморазвития. На основе анализа этих факторов были выявлены противоречия, которые обеспечили динамику работы индивида над собой. На основе научного анализа и исследований разработано содержание заданий, выполняемых на таких этапах, как самоанализ, самостоятельное задание, саморазвитие и самооценка процесса самообучения учителей.

Ключевые слова: учитель, педагогический труд, научная организация труда, планирование, режим дня, рабочее время, условия труда, время отдыха.

THE ROLE OF THE EFFECTIVENESS OF TEACHERS' WORK ON THEMSELVES IN IMPROVING THE QUALITY OF EDUCATION

Master of the Samarkand branch of the Tashkent International University
of Chemistry Abulkosimova Umida Asrorovna

Abstract. Since the content of pedagogical activity is of a creative nature, the scientific organization of work is an important factor that ensures the effectiveness of activities. The article analyzes the views on the process of independent work of an individual. Psychological qualities of a person, such as activity, independence, responsibility, initiative, striving for goals, self-management, self-awareness, are an important factor of self development. Based on the analysis of these factors, contradictions were identified that provided the dynamics of the individual's work on himself. On the basis of scientific analysis and research, the content of tasks performed at such stages as self-analysis, independent task, self-development and self assessment of the self-learning process of teachers is developed.

Keywords: teacher, pedagogical work, scientific organization of work, planning, agenda, working hours, working conditions, rest time.

Bubungi kunda ta'lim tizimi tez sur'atlarda rivojlanmoqda. Bunda pedagogdan doimiy ravshda yangilanish, zamonaviy metod va tehnalogiyalarni o'zlashtirish talab etiladi. O'z ustida muntazam ishlaydigan o'qituvchi ta'lim sifatining asosiy kafolatchilaridan biridir. Ta'lim sifati mamlakatning rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Ta'lim tizimining samaradorligi ko'p jihatdan pedagoglarning kasbiy mahorati, bilim darajasi va shaxsiy rivojlanishiga bog'liq. Bugungi kunda zamonaviy ta'lim jarayonida pedagoglarning o'z ustida ishlashi — doimiy o'qish, malaka oshirish, yangi pedagogik texnologiyalarni egallash va shaxsiy kompetensiyalarni rivojlantirish — ta'lim sifatini oshirishning asosiy omillaridan biridir. Pedagogning kasbiy rivojlanishi o'quv jarayonining samaradorligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. U o'z bilimini yangilab borishi, innovatsion metodlarni qo'llashi va o'quvchilar bilan samarali ishlashini ta'minlashi lozim. Shu bilan birga, o'z ustida ishlash pedagogning motivatsiyasini oshiradi va kasbiy qoniqish hissini kuchaytiradi.

Pedagoglarni o'z ustida ishlash deganda, birinchi navbatda, o'qituvchining professional va shaxsiy rivojlanish jarayonini tushunish kerak. Bu jarayon quyidagi elementlarni o'z ichiga oladi: Kasbiy bilim va ko'nikmalarni oshirish – yangi pedagogik texnologiyalar, metodikalar, fan sohasidagi yangiliklarni o'zlashtirish. Shaxsiy kompetensiyalarni rivojlantirish – muloqot, liderlik, kreativ fikrlash,

konfliktlarni hal etish kabi ijtimoiy va emotsional ko'nikmalarni shakllantirish. Ta'lim jarayonini tahlil qilish va baholash – o'quvchilarning bilim darajasini o'rganish, dars rejasini takomillashtirish, metodik va didaktik materiallarni yangilash¹.

Pedagoglarning malaka oshirishi va ta'lim sifatini ko'rib chiqadigan bo'lsak: Malaka oshirish - pedagoglarni o'z ustida ishlashning eng muhim yo'nalishlaridan biridir. Zamonaviy ta'lim jarayoni tez rivojlanmoqda va har bir pedagog yangi bilim va texnologiyalarni egallashi zarur. Malaka oshirishning asosiy foydalari quyidagilardan iborat: Darslarda innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo'llash imkoniyati, o'quvchilar bilan samarali muloqot qilish va individual yondashuvni rivojlantirish, O'quv materiallarini yangilash va ta'lim jarayonini interaktiv qilish. Pedagogning motivatsiyasi va professional qoniqishini oshirish. Shu nuqtai nazardan, malaka oshirish nafaqat pedagogning kasbiy rivojlanishi, balki butun ta'lim tizimining sifatini yaxshilash uchun zarur jarayon hisoblanadi.

Kasbiy motivatsiya va qoniqish ortadi – pedagoglar o'z kasbiy mahoratini oshirgani sari dars berishga bo'lgan qiziqish va ishtiyoq kuchayadi. Innovatsion ta'lim muhitini yaratadi – zamonaviy texnologiyalar va metodlar o'quv jarayoniga tatbiq etiladi. Shu bilan birga, pedagoglarning o'z ustida ishlashi maktab va ta'lim muassasalarining umumiy rivojlanishiga ham hissa qo'shadi².

Shaxsning o'z-o'zini rivojlantirish jarayoni bir necha bosqichli iyerarxiya tarzida amalga oshadi. Bunda har bir bosqichdagi ehtiyojlar to'liq amalga oshgandagina navbatdagi bosqichga o'tiladi va oxir-oqibat shaxs o'z imkoniyatlarini namoyon etishga va shaxsiy rivojlanishga erishadi. Bo'lajak o'qituvchilarning o'z ustida ishlashi mutaxassis sifatida o'z shaxsiy imkoniyatlarni namoyon etish tomon harakat, pedagogik jarayon talablariga adaptatsiya, kasbiy kompetentlikni muntazam oshirib borish, ma'naviy-axloqiy sifatlarni uzluksiz rivojlantirish kabi faoliyatgini amalga oshirish hamda shaxsiy tashabbuskorlik, mustaqillik, mas'uliyatlilik va irodaviy sifatlarning namoyon bo'lishidir. Psixologik va pedagogik manbalar tahliliga tayangan holda ta'kidlashimiz mumkinki, bo'lajak o'qituvchilarning o'z ustida ishlash jarayonini tartibga solib turuvchi tashqi omillarga pedagogik muhit, pedagogik muloqot, vaqtdan unumli foydalana bilish va jamoani boshqarish uslubi kabilar kiradi³. Boshlang'ich sinf o'qituvchilarining o'z ustida ishlash jarayoni dinamikasini ta'minlovchi such sifatida qator qarama-qarshiliklarni keltirishimiz mumkin: Shaxsiy

¹ Андреев В. И. Педагогика: Учебный курс для творческого саморазвития. Казань: Центр инно- вац. технологий, 2003. 608 с.

² Nurullayeva, S. U. (2017). Emotional stability as one of the professional qualities of teachers. Наука и мир, 2(7), 64-65.

³ Nurullaeva Sh., Aslanova O., Yuldashev S., Boymatova M. Modeling the Professional Training of Future Teachers. PSYCHOLOGY AND EDUCATION (2021) 58(2): 1295-1305.

imkoniyatlar va o'z faoliyat mazmunini o'zgartirish hamda o'z-o'zini rivojlantirish ehtiyoji o'rtasidagi qarama-qarshiliklar. Pedagogik maqsad va motiv o'rtasidagi qarama-qarshiliklar. Motivning maqsad sari yaqinlashtirish pedagogga o'z ustida ishlash ehtiyojini yuzaga keltiradi. Pedagogik talab va vazifalar dinamikasi hamda ularni amalga oshirishdagi ichki imkoniyatlar o'rtasidagi qarama-qarshiliklar. Pedagogning o'z faoliyati uchun tanlab olgan ideal obrazi hamda shaxsiy natijalari o'rtasidagi farq. Bo'lajak o'qituvchilarning o'z ustida ishlash jarayoni o'zaro uzviy bog'liq bo'lgan va bir-birini to'ldirib boruvchi to'rtta bosqichda amalga oshadi: Birinchi bosqich – o'z-o'zini tahlil bosqichi. Bu bosqichda ichki harakat “Men va O'zga inson” modeli asosida amalga oshadi. Ya'ni bo'lajak o'qituvchi o'z faoliyatini chetdan, o'zga bir inson sifatida tahlil qiladi, o'z faoliyatiga hech bir manfaatlarga tayanmasdan, tanqidiy, o'yektiv baho beradi. Va bunda asosiysi o'z imkoniyatlari, bilimi, egallagan tajribalari doirasini aniq belgilab oladi. Ikkinchi bosqich – o'z-o'ziga vazifa berish bosqichi. Bu bosqich “Men va Men” modeli asosida amalga oshiriladi. Bu bosqichda pedagog o'z imkoniyatlari va egallashi lozim bo'lgan bilim hamda tajribalari doirasini qiyoslashi asosida, jamiyat talablaridan kelib chiqib amalga oshirishi lozim bo'lgan vazifalarni belgilab oladi, o'z-o'zini mustaqil ishlash faoliyatiga tayyorlaydi, motivatsiya yaratadi. Uchinchi bosqich - o'z-o'zini rivojlantirish bosqichi. “Men va MEN” modeli asosida amalga oshadigan bosqichda pedagog o'zini takomillashgan tajribalar egasi bo'lgan pedagog darajasiga ko'tarish uchun amalga oshadigan harakatlar ketma-ketligini bajarishga kirishadi. Bu asosiy bosqich bo'lib, aynan shu bosqichda bo'lajak o'qituvchi yoki pedagog mustaqil faoliyatni amalga oshiradi, irodaviy sifatlarni namoyon etadi, tashabbuskorlik ko'rsatadi. Natijada u o'zini “MEN” tarzida, ya'ni rivojlanishning yangi, yuqoriroq bosqichiga o'tganligini anglaydi. To'rtinchi bosqich – o'z-o'zini baholash bosqichi. Bu bosqichning pedagogik o'z ustida ishlash jarayonining so'nggi bosqich bo'lib, bu bosqich “Men va mening Idealim” modelida amalga oshadi. Ya'ni bo'lajak o'qituvchi yoki pedagog o'z ustida ishlash jarayoni natijasini o'z idealidagi o'qituvchi ko'rsatkichlari bilan qiyoslaydi va o'z faoliyatiga baho yeradi. O'z-o'ziga berilayotgan bahoning obyektivligi o'z ustida ishlash jarayoni samaradorligini ta'minlashga xizmat qiladi. Ya'ni ushbu baho talabaning yoki pedagogning o'z ustida ishlash jarayoni davomiyligi, uzluksizligini ta'minlaydi. Virtual ta'lim muhiti har bir talaba va pedagog uchun o'z ustida ishlash jarayonida yuzaga keluvchi zamon va makon muammolarini yengib o'tishga yordam beradi.⁴ O'qituvchi mehnati - ijodiy kasblar turiga kiradi. Pedagogik faoliyat o'z mohiyatiga ko'ra ijodiy xarakterga ega. Mahoratli pedagog o'quvchi shaxsini shakllantiradi, kutilmagan vaziyatda mustaqil qaror qabul qiladi,

⁴ Нуруллаева, Ш. У. (2014). ТЕХНОЛОГИИ ФОРМИРОВАНИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНЫХ НАВЫКОВ У БУДУЩИХ ПРЕПОДАВАТЕЛЕЙ. In Подготовка профессиональных управленческих кадров: опыт, проблемы, инновационные образовательные технологии (pp. 60-64).

pedagogik muammolar original yechimlar topa biladi va o'quv jarayonini mustaqil boshqaradi.

Dam olish uchun kunlik amalga oshiriladigan ish turlari oralig'ida, kunlik ish faoliyati yakunida, ish haftasi yakunida va yillik ta'til davomida o'qituvchi dam olish va salomatligini tiklashga alohida e'tibor qaratishi talab etiladi. Pedagogik mehnatning ilmiy asosda tashkil etilishi, ushbu jarayon samaradorligini, ilmiyligini, mazmundorligini oshirish bilan bir qatorda ta'lim jarayoni ishtirokchilariga o'z salohiyatlarini uzoq muddat davomida namoyon etish imkonini beradi.

Xulosa qilib aytganda, pedagoglarning o'z ustida ishlashi ta'lim sifatini oshirishning asosiy omili hisoblanadi. Kasbiy va shaxsiy rivojlanishga e'tibor qaratgan o'qituvchi darslarni samarali tashkil etadi, o'quvchilarga sifatli ta'lim beradi va zamonaviy ta'lim standartlariga moslashadi. Shu bois pedagoglarni doimiy malaka oshirish va o'z ustida ishlashga rag'batlantirish ta'lim tizimining sifatini oshirishning muhim strategiyasi bo'lib qoladi. O'z ustida ishlash pedagogni faqat bilimdon emas, balki ijodiy, motivatsiyali va innovatsion shaxsga aylantiradi. Bu esa, o'z navbatida, butun ta'lim tizimining rivojlanishiga bevosita hissa qo'shadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Андреев В. И. Педагогика: Учебный курс для творческого саморазвития. Казань: Центр инно- вац. технологий, 2003. 608 с.
2. Песталотти И. Г. Избранные педагогические сочинения: в 2 т. М.: Педагогика, 1981. Т. 2., 416 с.
3. Nurullaeva Sh., Aslanova O., Yuldashev S., Boymatova M. Modeling the Professional Training of Future Teachers. PSYCHOLOGY AND EDUCATION (2021) 58(2): 1295-1305.
4. Abulqosimova D.A. 1991-2001 yillarda Samarqand davlat universiteti faoliyatining yangi bosqichga ko'tarilishi 2025-4/3 Xorazm Ma'mun akademiyasi axborotnomasi.
5. Нуруллаева, Ш. У. (2014). ТЕХНОЛОГИИ ФОРМИРОВАНИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНЫХ НАВЫКОВ У БУДУЩИХ ПРЕПОДАВАТЕЛЕЙ. In Подготовка профессиональных управленческих кадров: опыт, проблемы, инновационные образовательные технологии (pp. 60-64).
6. Мажидов Ш. Ф, Саидова Х. Реформы в сфере образования и личность преподавателя //Образование через всю жизнь: непрерывное образование в интересах устойчивого развития. – 2007. – Т. 5. – С. 225-225.
7. Nurullayeva, S. H. «Pedagogical cooperation in higher education.» Современное музыкальное образование: традиции и инновации. 2016.

8. Abulqosimova D.A. O'zbekistonda oliy ta'lim sohasini rivojlantirish bo'yicha davlat siyosatining mohiyati (1991-2021yy) ISSN 2181-7286 3/2025 Таълим тизимида ижтимоий-гуманитар фанлар
9. Khalilovna, O. N., Lutfullayevna, B. L., Kosimovich, N. U., & Yusupovna, R. M. (2020). HISTORICAL STUDIES IN THE PEDAGOGICAL TRAINING AND WAYS TO IMPROVE VOCATIONAL TRAINING. Journal of Critical Reviews, 7(3), 274-277.
10. Khalilovna, O. N, Axmatjanovna, M. M., Kosimovich, N. U., & Botirovna, K. V. (2020). Main core and meaning of shaping professional faith. Journal of Critical Reviews, 7(2), 242-245.
11. Abulqosimova D.A. O'zbekistonda oliy ta'lim sohasini rivojlantirish bo'yicha davlat siyosatining mohiyati (1991-2021yy) . ISSN 2181-7286 3/2025 169-173. Таълим тизимида ижтимоий-гуманитар фанлар.
12. ROSSIYA IMPERIYASINING SIRDARYO VILOYATIDA OLIB BORGAN MA'MURIY-SIYOSIY BOSHQARUV TIZIMI (XIX ASRNING IKKINCHI YARMI-XX ASR BOSHLAGI) G Tursunova - ... социально-гуманитарных наук Actual Problems of ..., 2025
13. Safarovich G. S., Gavhar T. Turkestan in the Russian Empire (The second half of the 19th century and the beginning of the 20th century) //International Journal on Integrated Education. – T. 2. – №. 6. – С. 138-144.
14. Abdug'aniyev, Bekzod. "O'ZBEK XONLIKLARI VA USMONLI DAVLATI HUKMDORI SULTON SULAYMON O'RTASIDAGI SIYOSIY ALOQALAR." Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук Actual Problems of Humanities and Social Sciences. 5.5 (2025): 57-64.
15. Abulqosimova D.A.Samarqand davlat universitetida pedagogik jarayonlarni innovatsion usullar orqali tashkil etishning samaradorligi. O'ZBEKISTON OLIMLARINING ILMIY-AMALIY TADQIQOTLARI ilmiy-nazariy, metodik jurnali., 2025
16. Abulqosimova D.A.Samarqand davlat tibbiyot universiteti talabalarining so'ngi yillardagi erishgan yutuqlari TRANSFORMING EDUCATION THROUGH SCIENTIFIC DISCOVERY Vol. 1 No. 1 (2025)
17. **Sh. R. Umurov.** Благотворительный фонд "вакф" и его деятельность в "новейшем Узбекистане Global Trends In Education And Research Development 15.05.2025. 1645-1649 bet.
<https://gisconf.com/index.php/GTERD/issue/view/9>